O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2024 - yil 6 - iyul 310-2-0-Q/24 Buxoro viloyati hokimligi

Viloyat hududidagi shahar va tumanlar markaziy ko‘chalari va avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash, viloyat hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 13-fevraldagi 24/2-973-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (I.Tursunov), viloyat ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (B.Ulug`bekov), viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi (M.Berdiyev)ga shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda viloyat hududida transport harakat jadalligi yuqori va tezlik oqibatida yo‘l-transport hodisalari ko‘plab kuzatilgan avtomobil yo‘llarining ayrim uchastkalarida ilovaga muvofiq 100 km/soat tezlikdan 70 km/soat tezlikga o‘zgartirilsin va 3.24 “70 yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari J.Arashov hamda viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i I.Tursunov zimmasiga yuklatilsin.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**

Buxoro viloyat hokimining
2024-yil 6-iyuldagi
310-2-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Buxoro viloyat hududidagi avtomobil yo‘llarining aholi punktlaridan tashqari joylarida transport vositalarini harakat tezligi
70 kilometr/soatga tushirilgan avtomobil yo‘llari

№	Avtomobil yo‘li nomi	kilometr oralig‘i
Kogon tumani		
1	**4R-69** “**Buxoro sh. — Buxoro parrandachilik fabrikasi – 41—temir yo‘l raz’ezdi — To‘dako‘l dahasi — Navoiy sh.**”	9-11 va 15-35.2 km.lari oralig‘i
2	**A-380 “b”** “Buxoro halqa yo‘li”	32-39 km.lari oralig‘i
3	**4R-65** “**4R63 avtoyo‘li (49 km) Azizobod q. — Kogon sh.”**	32-35, 37.3-38.6, 40-42 va 45-46 km.lari oralig‘i
Olot tumani		
4	**4R-78** “**Olot sh. — Hamza I-II — nasos stansiyalariga**”	9-20 km.lari oralig‘i
Romitan tumani		
5	**4R-68** “**G‘allaosiyo q. — Romitan sh. — A380 avtoyo‘li**”	12-30 km.lari oralig‘i
6	**4R-48** “**Zarafshon trakti**”	334-340 km.lari oralig‘i
Peshko‘ tumani		
7	**4R-48** “**Zarafshon trakti**”	306-309.3, 313.2-317.8, 322.2-323.5, 325.2-326 km.lari oralig‘i
8	**4R-66** “**Azizobod q. — Vobkent sh. — Aliyor q. — Xo‘ja Porso q. — A380 avtoyo‘li”**	33-35.4 km.lari oralig‘i
Shofirkon tumani		
9	**4R-48** “**Zarafshon trakti**”	300-306 km.lari oralig‘i
10	**4R-220** “**Vobkent sh. — Shofirkon sh. — Jilvon q.**”	6-7 va 18-21 km.lari oralig‘i
G‘ijduvon tuman		
11	**4R-48** “**Zarafshon trakti**”	237-255 km.lari oralig‘i
12	**4K-147** “G‘ijduvon sh. — Shofirkon q.”	0.8-7 km.lari oralig‘i
13	**A-379** “**Navoiy—Uchquduq”** (Zarafshon shahri orqali)	58.7-80.6 va 97.8-105.7 km.lari oralig‘i
14	**4R-62** “**A379 avtoyo‘li — Tongsaroy q — Teranquduq q. —Qizilqum halqa yo‘li (106 km)”**	0-30 km.lari oralig‘i
Vobkent tumani		
15	**4R-220** “**Vobkent sh. — Shofirkon sh. — Jilvon q.**”	3-6 km.lari oralig‘i
16	**4R-66** “**Azizobod q. — Vobkent sh. — Aliyor q. — Xo‘ja Porso q. — A380 avtoyo‘li”**	32-33 km.lari oralig‘i
Qorako‘l tumani		
17	**4K-198 “**Qorako‘l sh. — Mirzaqal’a q. — Jigachi q.**”**	4-5 va 8-10 km.lari